


Xizmatlar sohasining rivojlanishi – Toshkent viloyatining farovonligining asosi

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi jamiyatning jadal rivojlanish mezoniga aylandi. Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini, investitsiya muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilashga yordam beradi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1212,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari (29,1%), transport xizmatlari (22,5%), moliyaviy xizmatlar (16,4%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2,8%) ustunlik qilmoqda.

2020-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2020 yil yanvar oyi uchun)

	Hajmi, mlrd. so'm	o'tgan yilga nisbatan % hisobida	yakunga nisbatan % hisobida
Jami xizmatlar	1212,8	109,7	121,8
shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	34,1	121,0	2,8
moliyaviy xizmatlar	198,3	125,4	16,4
transport xizmatlari	272,6	101,2	22,5
shu jumladan: avtotransport xizmati	264,1	101,1	21,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	51,9	106,9	4,3
savdo xizmatlari	353,4	101,7	29,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	39,3	100,5	3,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	54,6	228,3	4,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	22,5	106,2	1,9
ijara xizmatlari	37,2	103,3	3,1
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	25,4	103,3	2,1
shaxsiy xizmatlar	34,1	107,0	2,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	50,2	102,7	4,1
boshqa xizmatlar	39,3	134,5	3,2

2020 yil yanvar oyida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



2020 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2020 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha me'morchilik sohasidagi xizmatlar (102,7 %), moliyaviy xizmatlar (125,4 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (106,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (106,9 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Eng past o'sish sur'atlari esa ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (100,5 %), transport xizmatlar (101,2 %), tashkil etdi.


2020 yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (92,3%) yetakchilik qilmoqda. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari tashkil etadi.

Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi. 2020 yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi 353,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 29,1 % ni tashkil etdi.

2020 yil yanvar oyida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsiklardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 71,6 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsiklar savdosidan tashqari) ulushi 16,6% ni tashkil etdi. Avtomobil va mototsiklar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsiklarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 11,8 % ni tashkil qiladi.



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020 yil yanvar oyida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Jami			Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd.so'm	o'tgan yilga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so'm	o'tgan yilga nisbatan % da
Toshkent viloyati	1212,8	109,7	100,0	415,4	108,1
shaharlar:					
Nurafshon	278,7	115,6	23,0	5 745,8	114,2
Olmaliq	69,5	101,6	5,7	534,0	100,2
Angren	52,0	104,7	4,3	277,8	103,4
Bekobod	45,1	103,6	3,7	474,5	102,1
Chirchiq	96,0	142,6	7,9	613,5	141,6
Ohangaron	20,2	100,6	1,7	540,2	98,7
Yangiyo'l	45,1	104,3	3,7	751,9	103,3
tumanlar:					
Oqqo'rg'on	27,1	102,5	2,2	260,4	100,9
Ohangaron	14,1	105,4	1,2	148,5	104,0
Bekobod	25,1	101,4	2,1	160,5	99,9



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

	Jami			Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd.so'm	o'tgan yilga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so'm	o'tgan yilga nisbatan % da
Bo'stonliq	61,7	124,3	5,1	366,8	123,0
Bo'ka	27,2	104,7	2,2	217,9	103,1
Zangiota	80,0	105,0	6,6	407,8	103,8
Qibray	99,8	102,2	8,2	501,7	100,8
Quyichirchiq	16,7	104,0	1,4	156,2	102,5
Parkent	39,5	107,7	3,3	257,7	105,8
Piskent	13,9	103,5	1,1	139,2	102,1
Toshkent	58,1	104,2	4,8	324,7	102,8
O'rtachirchiq	35,0	100,3	2,9	236,8	98,6
Chinoz	30,1	109,1	2,5	227,0	107,6
Yuqorichirchiq	32,2	106,9	2,7	240,3	105,1
Yangiyo'l	45,8	103,6	3,8	219,7	102,0


Hududlar o'rtasida eng yuqori o'sish sur'atlari Chirchiq (142,6%), Nurafshon shaharlari (115,6%), shuningdek Bo'stonliq (124,3%), Chinoz (109,1%) va Parkent (107,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Eng past o'sish sur'atlari esa Ohangaron shahar (100,6%) va O'rtachirchiq (100,3%) tumanlariga to'g'ri keladi. 2020 yil yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 415,4 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,1% ni tashkil etdi.


2020-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng yuqori xizmatlar ulushi Nurafshon shahrida – 5745,8 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114,2 % tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng kichik xizmatlar ulushi Pskent tumanida 139,2 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (102,1 %), Ohangaron tumanida 148,5 ming so'mni o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (104,0 %), Quyichirchiq tumanida 156,2 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (102,5 %) tashkil etdi.

2020 yil yanvar oyida hududlar bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %



Viloyatda eng katta ulush Nurafshon (23,0 %), Chirchiq (7,9 %)shaharlari va Qibray tumani (8,2 %) ga to'g'ri keldi.

Viloyatda eng past ulush esa Ohangaron (1,2 %), Quyichirchiq (1,4 %) va Piskent (1,1%) tumanlarida kuzatildi.

2020-yil yanvar oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



Boshqa xizmatlar
3,2 %



Savdo xizmatlari
29,1



Shaxsiy xizmatlar
2,8 %



Transport xizmatlari
22,5 %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
2,8 %



Moliyaviy xizmatlar
16,4 %



Ta'lim sohasidagi xizmatlar
4,5 %



Yashash va ovqatlanish xizmatlari
4,3 %



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
2,1 %



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar
3,2 %



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
1,9 %




Me'morchilik muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar
4,1 %



Ijara xizmatlari
3,1 %

2020-yil yanvar oyida jami xizmatlarda kichik biznesning ulushi, %



Viloyatda kichik biznesning eng katta ulushi Oqqo'rg'on (98,5 %), Pskent (98,5), Bekobod (98,0 %) tumanlarida va Yangiyo'l (97,9 %) shahrida kuzatildi. Viloyatda kichik biznesning eng past ulushi Nurafshon shahrida (5,5 %) tashkil etdi.

Toshkent viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: M.Tastanbekov

Tel:(71)230-86-74